



- 1 2 3 4 5 6 7 8 9 10 11 12 13 14 15 16 17 18 19 20 21 22 23 24 25 26 27 28 29 30
31 32 33 34 35 36 37 38 39 40

1. Qaysi gapda ravishning uch ma'no turi ishtirok etgan?

- Bolalar birin-ketin ko'zlarini uqalab, har yoqqa qarab kela boshladi.
- Men xuddi shu savolni kutib turgandek, darhol javob bera qoldim.
- Birdan eshik taqillab, ichkariga qirq yoshlardagi ayol kirib keldi.
- Avval men, keyin ukam sekingina yurib, tashqariga chiqib ketdik.

◀ Oldingi savol

▶ Keyingi savol

2. Qaysi javobda berilgan so'zlarning asosi tarkibidagi barcha undoshlar jarangli hisoblanadi?

- yulduzcha, maktublar
- yubormoq, gullat
- kamolot, darslik
- maroqli, adashgan

3. Quyidagi qaysi ma'lumot Navoiyning "Ko'zung ne balo qaro bo'lubtur..." g'azali haqida?

- Lirik qahramon o'z hissiyotlarini saboga xitob tarzida ifodalaydi.
- Ma'shuqaning sifati "sarvi xiromon" ifodasida, oshiqning "holi" "yig'larimning shiddati" ifodasida ochiq ko'rsatilgan.
- G'azalda "hur-u pari" hamda "ul" va "bu" olmoshlari ishtirokida jam'u taqsim she'riy san'atining tatbiqi ko'zga tashlanadi.
- Ushbu g'azalda boshdan oyoq tardi aks san'atiga tayaniladi.

4. *Tezis, monografiya* qaysi uslubga xos janrlar hisoblanadi?

- publitsistik
- ilmiy
- badiiy
- rasmiy

Барча фанлардан аттестация саволлари, ўқитувчилар ва ўқувчилар учун тестлар, мактаб дарсликлари ва қизиқарли мақолалар

«Таълим/Образование» саҳифалари:

5. Ushbu gapdagi soʻzlarning turkumi va sintaktik vazifasi toʻgʻri moslashtirilgan javobni aniqlang.
U tinmay kishnayotgan qora otning chilvirini bolalarga tutqazdi.

1) ot 2) sifat 3) olmosh 4) feʼl

a) kesim b) ega c) aniqlovchi d) toʻldiruvchi e) hol

1 – b, d; 2 – c; 3 – b; 4 – e, a

1 – c, d; 2 – c; 3 – b; 4 – e, c, a

1 – c, d; 2 – e; 3 – b; 4 – c, a

1 – b, c; 2 – e, c; 3 – b; 4 – c, a

6. Bolaligi oʻtgan hovliga yaqinlashganda issiq non hidi dimogʻiga urildi, koʻngli yayrab ketdi.
Ushbu gapdagi fonetik oʻzgarishlarga oid toʻgʻri maʼlumotni aniqlang.

Bir oʻrinda ot turkumiga oid soʻz tarkibida tovush almashgan.

Fonetik oʻzgarishlarning barchasi asoslar tarkibida yuz bergan.

Ikki oʻrinda egalik qoʻshimchasi taʼsirida tovush almashgan.

Fonetik oʻzgarishlarning barchasi yasama soʻzlar tarkibida yuz bergan.

7. "Saddi Iskandariy" dostonida qaysi hukmdorning oʻgʻli Iskandar qarshisida "Otamning yoshi ulgʻayib qarib qolgach, uning ishlaridan men tashvishlanib yurar edim... Pand-nasihatlar qildim, qattiq gaplar ham aytdim. Iqbol davlati qaytgan ekan, hech qanday soʻz taʼsir qilmadi", deya iztirob chekadi?

Chin hoqonining

Hind royining

Eron podshosining

Kashmir shohining

www.ilmlar.uz

8. Parhezshunoslar isteʼmolga yaroqsiz oziq ovqatlarni tanovvul qilish ogʻir oqibatlariga olib kelishi mumkinligini takidlaydilar.
Ushbu gapdagi imloviy xatoliklar yuzasidan berilgan qaysi maʼlumotlar toʻgʻri emas?

1. Ot turkumiga oid 2 ta soʻz imlosida xatolik uchraydi.

2. Feʼl turkumiga oid 2 ta soʻz imlosida xatolik uchraydi.

3. Ikki oʻrinda sodda soʻz imlosida xatolik uchraydi.

4. Bir oʻrinda qoʻshma soʻz imlosida xatolik uchraydi.

2,4

1,4

1,3

2,3

9. — Zebi To'xtaniso sizlar ham menga yaqinroq o'tiringlar. Enaxon sen ham kel.
— Aytavering gapingizni qulog'im kar emas hammasini eshitib o'tiribman — dedi Enaxon joyidan jilmay.
Ushbu parchada necha o'rinda vergul qo'llanishi lozim?

- 6
- 4
- 5
- 7

www.ilmlar.uz

10.
Erkin Vohidov buyuk italyan shoiri Dantening «Ilohiy komediya» asarini mahorat bilan o'zbek tiliga tarjima qilgan.
Berilgan ma'lumotning to'g'ri yoki noto'g'riligini aniqlang.

- noto'g'ri
- to'g'ri

11. Bugun boks bo'yicha chempionlikni qo'lga kiritgan O'zbekistonlik sportchilarni taqdirlash marosimi namoyish etiladi.
Berilgan parchada bir o'rinda imloviy xatolik uchraydi.
Ushbu ma'lumotning to'g'ri yoki noto'g'riligini aniqlang.

- to'g'ri
- noto'g'ri

12. Tushlikda uyishma yonidagi oshxonada ovqatlanayotgan edik. Gap aylanib kelib meva-chevalarning foydasiga taqaldi.
— Mevalar shunchaki ovqat emas, ayni chog'da malhamdir, — dedi tibbiyotga daxldor bir hamsuhbatimiz. — Har bir meva ma'lum bir kasallikka davo bo'ladi.
Ushbu parchada imlosida xatolik uchraydigan so'z haqidagi qaysi ma'lumot to'g'ri emas?

- ega vazifasida qo'llangan
- ot turkumiga oid
- sodda so'z
- fe'l turkumidan yasalgan

13. Qaysi asarda «Ilm olish barcha erkak va ayollar uchun ham farzdir», «Xitoyga borib bo'lsa ham ilm talab qilinglar» kabi hadisi shariflarning mazmuni berib boriladi?

- "Otkan kunlar" (A.Qodiriy)
- "Kecha va kunduz" (Cho'lpon)
- "Abulfayxon" (A.Fitrat)
- "Padarkush" (M.Behbudiy)

www.ilmlar.uz

14. Ikki o'rinda sof ko'makchi ishtirok etgan javobni aniqlang.

- Yoz kunlarida baliq ovlash uchun daryo bo'yiga ko'p borar edik.
- Yerni go'zal qilgani sayin go'zal bo'lar o'zi ham inson.
- Fursat g'animatdir, shoh satrlar-la bezamoq chog'idir umr daftarin.
- Yormat u bilan yonma-yon yurib eski tanish kabi so'zlashib bordi.

15. -la, -a, -ay fe'l yasovchi qo'shimchalari qo'shilganda ayrim so'zlar imlosida tovush tushishi mumkin.
Berilgan ma'lumotning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini aniqlang.

- noto'g'ri
- to'g'ri

16. Alisher Navoiyning "Ko'zing ne balo qaro bo'lubtur..." g'azaliga oid ma'lumotlarni aniqlang.

1. G'azalda tardi aks san'atidan mohirona foydalanilgan.

2. G'azalda "yuz jon" ifodasi metonimiya usulida yuzta odam, ya'ni oshiqni, bundan tashqari, "oshiqning barcha joni" ma'nosini anglatadi.

3. G'azalda shoir boshqalarga bahra yetkazish imkoniga ega bo'lmagan kishiga ko'z tutish o'rinli bo'lmaydi, imkoni borning esa menga nisbatan rag'bat mavjud emas, degan ma'noni ifodalaydi.

1, 2

1, 3

1, 2, 3

2, 3

www.ilmlar.uz

17.

"Miftoh ul-adl" asaridan keltirilgan hikoyatda tasvirlanishicha, Sulaymon alayhissalom "adolat qoidasi butururkim, dodxoh muddai-yu muddao alayh ikkisini barobar turg'uzub so'romoq kerakdur, har so'zlari bo'lsa bir-bir aytg'oylar, to hokim alarning so'zin bilib hukm qilg'oy" deb aytadi. Hikoyatda so'z yuritilayotgan "muddai-yu muddao alayh ikkisi" qaysi timsollar edi?

pashsha va yel

chumoli va inson

ikki musofir

ikki qul

18. Amir Temur o'z tuzuklarini hayotga tadbiiq qilarkan, eng avvalo, jamiyatda mavjud ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning qonuniy asosda bo'lishini mo'ljil qilgan. Ushbu gapda qaysi turkumga oid so'z imlosida xatolik mavjud?

ravish

fe'l

sifat

ot

19. Qaysi ijodkor she'rlaridan birida tarixga nazar tashlab Enasoyning ming yillar davomida o'zbek nomini aytib oqishi, Alp Teginning "Bizning qayg'umiz yo'q boladan boshqa..." degan hikmatli so'zlari qalamga olingan?

Iqbol Mirzo ("O'zbek")

Mahmud Toir ("Momo yer")

Sirojiddin Sayyid ("Vatan")

Xurshid Davron ("Men ko'ksingga boshimni qo'ydim")

20. Qaysi javobda eganing uyushib kelishi kuzatilmaydi?

Shuni unutmangki, haqiqiy olimning so'zi, o'yi, fikri va ishi doimo bir xil bo'ladi.

Inson o'z kasb-korini mukammal bilmog'i, yaxshi tarbiya olmog'i va yaxshi fazilatlariga ega bo'lmog'i kerak.

Buyuk hakim Abu Ali ibn Sinoning qo'lida ta'lim olish, unga shogird bo'lish katta sharaf edi.

Shaxsni butun borliq: odamlar, buyum va narsalar, voqea-hodisalar, turmushning sinovli kunlari tarbiyalaydi.

21. Farzandi dunyoga kelganini uzoqroqda eshitib, suyunchi deb kelganlarga katta in'om berishni niyat qilgan podsho obrazi qaysi dostonida uchraydi?

"Ravshan"

"Rustamxon"

"Kuntug'mish"

"Go'ro'g'lining tug'ilishi"

www.ilmlar.uz

22. Qaysi javobdagi ibora va soʻz maʼnodoshlik hosil qila olmaydi?

- yeng ichida – tezlik bilan
- yetti uxlab tushiga kirmagan – kutmagan
- igna ustida oʻtirmoq – bezovta boʻlmoq
- yer bilan osmoncha – beqiyos

www.ilmlar.uz

23. "Rossiyaning Sankt-Peterburg shahridagi Sharqshunoslik institutida saqlanayotgan shoir «Kulliyot»i qoʻlyozmasining dunyoda yagona nusxasi eng muhim manba hisoblanadi. Chunki u, birinchidan, shoir vafotidan 34 yil keyin koʻchirilgani uchun nihoyatda ishonchli, ikkinchidan, bu kitobga muallifning deyarli barcha asarlari jamlangan".

Ushbu parchada qaysi shoir toʻplami haqida maʼlumot berilgan?

- Alisher Navoiy
- Saʼdiy Sheroziy
- Muhammadrizo Ogahiy
- Muhammad Fuzuliy

24. *Vasl uyin obod qildim, buzdi hijron oqibat,
Seli gʻamdin bu imorat boʻldi vayron oqibat.*

Ushbu bayt taqteʼsi toʻgʻri berilgan javobni aniqlang.

- V - - / - V - - / - V - - / - V - (yoki - V ~)
- V - - / - V - - / - V - - / - V - -
- V - - - / V - - - / V - - - / V - - -
- V - - - / V - - - / V - - - / V - - (yoki - V ~)

25. Quyidagi qaysi gaplarda sinekdoxa usulida maʼnosi koʻchgan ega vazifasidagi soʻz qatnashmagan?

1. Undan bir tirmoq – Salimjon qoldi. 2. Toʻqsonta tuyoq boqdik, daromadimiz yomon boʻlmadi. 3. Sakkiz qoʻl birlashsak, bu mushkulni ham yengib oʻtamiz. 4. Bugun yana "Nurafshon" musobaqada yutib ketdi.

- 1, 3
- 3, 4
- 2, 4
- 1, 2, 4

26. *Asar binoga oʻxshaydi. Faqat bino gʻishtdan quriladi asar esa soʻzdan quriladi. Endi bir narsani tasavvur qiling bitkazilgan binodan bitta gʻishtni sugʻurib olsangiz uning husniga shikast yetadi. Oʻnta gʻishtni koʻchirsangiz bino bosib qoladi.*

Berilgan parchada toʻrt oʻrinda vergul qoʻllanishi lozim.

Ushbu maʼlumotning toʻgʻri yoki notoʻgʻriligini aniqlang.

- notoʻgʻri
- toʻgʻri

www.ilmlar.uz

27. *Tuya mingan uzoqni koʻzlar,
Eshak mingan yaqinni koʻzlar.*

Ushbu gap yuzasidan berilgan qaysi maʼlumot toʻgʻri?

- Vositasiz toʻldiruvchi ikki oʻrinda ishtirok etgan.
- Egalar ot turkumiga oid soʻzlar bilan ifodalangan.
- Kesimning yasama soʻz bilan ifodalanishi kuzatiladi.
- Sifatlovchi aniqlovchilarning ishtiroki kuzatiladi.

28. Qaysi javobdagi ajratib ko'rsatilgan ikkala so'z ham *-la* qo'shimchasi yordamida yasalgan?

- Qish ayozi tobida, qor erinmay **bo'ralar**,
 Shox-shabba orasidan ovchi sergak **mo'ralar**.

- Bir qishloqdan o'tdilar ikkov sekin **tiqirlab**.
 Ortlaridan to'rt-besh odam kulib qoldi **piqirlab**

- Burhon **xaxolab** kulib, o'zi ham qoqildi-ku!
 Kesilgan daraxt kabi **gursillab** yiqildi-ku!

- Qorga deymen: – Namuncha, zeriktirding **uchqunlab**?
 Yog'masding-ku ilgari surunkasi uch **kunlab**.

29. "Omon ovchining o'limi" hikoyasi yuzasidan berilgan qaysi ma'lumot to'g'ri emas?

- Omonning bag'ritosh bo'lib o'sishiga oiladagi muhit, ayniqsa, otasining ta'siri kuchli bo'lgan.
 Omonning g'ajirlar cho'qiyotgan jasadini Ulton piyon ko'rib qoladi.
 Qishloqning aksariyat aholisi cho'lni o'zlashtirish uchun ko'chib ketganda Omon oilasidan voz kechib bo'lsa-da, yolg'iz qoladi.
 Hikoyada tasvirlanishicha, Omon ovchi kiyiklarni sira otmas, ularni tomosha qilishni yaxshi ko'rardi.

30. Oybekning "Navoiy" romanida ustoz tomonidan *"yetim bola uchun tirikchilik yo'li ochilur, degan andisha bilan uni shogirdlikka oldim. Zehni behad baland, qo'li oltin ekan. San'atda juda tez ilgarilab ketdi"* deya ta'riflangan, Navoiyning tahsiniga sazovor bo'lgan obraz nomi berilgan javobni aniqlang.

- Zayniddin
 Mirak Naqqosh
 Kamoliddin Behzod
 Sultonmurod

www.ilmlar.uz

31. *U din va diyonatni hamma narsadan ustun ko'radi. Uning uchun yaxshi kiyim, taniq taom, har xil o'yin-kulgilar ketidan borish umri shamolga berish bilan barobardir. Uning fikricha, inson o'z qalbini boyitishi, vujudini har xil illatlardan forig' qilishi kerak.* Ushbu parchada Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» dostonidagi qaysi qahramon tabiatiga xos jihatlar ko'rsatilgan?

- Kuntug'di
 O'zg'urmish
 O'gdulmish
 Oyto'ldi

32. Quyida berilganlardan Odil Yoqubov qalamiga mansub romanlar to'g'ri ajratib berilgan javobni aniqlang. 1) "Nur borki, soya bor"; 2) "Osiy banda"; 3) "Oqqushlar, oppoq qushlar"; 4) "Er boshiga ish tushsa"; 5) "Vijdon dorisi"; 6) "Qalbingga quloq sol".

- 1, 3, 5
 2, 4, 6
 2, 3, 4
 1, 5, 6

33. *Bog'da bayram. Hamma yoq shiorlar, plakatlar bilan bezatilgan. Bir tomonda karnay-surnay xalqni sayilga chorlaydi. Ikkinchi tomonda puflama asboblar orkestri sadolari ostida o'yin-kulgi, raqs. Yig'ilganlar orasidan ziyolilar, yozuvchilar ajralib chiqib, yozgi teatrga yo'l oladi. Ularni ko'rish uchun kelganlar ham o'rindiqlardan joy egallaydi.*
Ushbu parchada qaysi nisbatdagi fe'l ishtirok etmagan?

- birgalik nisbat
 aniq nisbat
 majhul nisbat
 o'zlik nisbat

www.ilmlar.uz

34. "xok" so'zi "tuproqqa aylangan inson jasadi" ma'nosini ham anglatadi. Ushbu ma'lumot to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini aniqlang.

- noto'g'ri
- to'g'ri

35. "Yeri, eli behad katta birining, Va har jihat qo'li kalta birining", "Xalqning fe'li o'z yeriga o'xsharkan: Katta urug' yalqov, loqayd yasharkan! Kichigi-chi, qaynagan qon, ishchan er" sifatlashlari bilan tasvirlangan ikki xalq taqdiri qaysi she'rda uchraydi?

- "Jangda o'lgan emas biror bahodir" (Shavkat Rahmon)
- "Dorilomon kunlar keldi..." (Halima Xudoyberdiyeva)
- "Eng so'nggi xazina" (Omon Matjon)
- "Turkiylar" (Shavkat Rahmon)

36. Kasalni yashirsang, isitmasi oshkor qiladi. Ushbu qo'shma gap yuzasidan berilgan qaysi ma'lumot to'g'ri emas?

- Bosh gapning kesimi yasama so'z bilan ifodalangan.
- Bosh gap shaxsi umumlashgan gap sanaladi.
- Bosh gapning egasi tarkibida orttirma nisbat qo'shimchasi mavjud.
- Ergash gapning kesimi aniq nisbatdagi tub fe'l bilan ifodalangan.

37. "Uyiga javob beraylik, – dedi shifokor, – o'n besh-yigirma kunga borib kelsin".

Ushbu ko'chirma gapli qo'shma gapdagi fe'llar yuzasidan berilgan qaysi ma'lumotlar to'g'ri emas?

1. Ko'chirma gap qismida ishtirok etgan fe'llar o'zaro bir xil mayl ma'nosini ifodalagan. 2. Ko'chirma gap qismidagi fe'llar o'zaro bir xil zamon ma'nosini ifodalagan. 3. Ushbu gapdagi o'tgan zamon fe'lida ilgari ro'y bergan harakatning so'zlovchi tomonidan eshitib bilingani ifodalangan. 4. Ushbu gapdagi fe'llarning barchasida o'zaro bir xil shaxs-son ma'nosi ifodalangan.

- 3, 4
- 1, 3
- 1, 2
- 2, 4

www.ilmlar.uz

38. Nodira qalamiga mansub g'azallar haqidagi ma'lumotlar to'g'ri moslashtirib berilgan javobni aniqlang.

I. "Oqibat" radifli g'azal; II. "Eshit" radifli g'azal;

1) Shayx San'on tilga olinib talmeh san'atining ajoyib namunasi yaratilgan; 2) lirik qahramon gapni to'g'ridan to'g'ri yorga murojaatdan boshlaydi, biroq g'azalda "yor" so'zi ishlatilmaydi; 3) g'azalda "sarvi ozod", "sarvi noz", "naxli oh", "shoxi shamshod" kabi obrazli ifodalar uchraydi; 4) Sulaymon payg'ambar alayhissalom tilga olingan.

- I – 2, 4; II – 1, 3
- I – 1, 2; II – 3, 4
- I – 4; II – 1, 2, 3
- I – 1, 4; II – 2, 3

39.

Qaysi baytda tashxis san'ati mavjud?

- Bo'lmasa jinsi jamolingg'a xaridor oftob,
 Ne uchun zarpo'shlig'lar aylar oftob?

- Doda keldim, ey salotin sarvari, dodim eshit,
 Sen shah-u, men benavo, lutf ayla, faryodim eshit.

- Olam ahli, bilingizkim, ish emas dushmanlig',
 Yor o'lung bir-biringizgaki, erur yorlig' ish.

www.ilmlar.uz

- Tolibi sodiq topilmas, yo'qsa kim qo'ydi qadam
 Yo'lg'akim, avvalqadam ma'shuqe o'tru kelmadi.

40. *Bepoyon vatanim sahrolarida toshqin daryo kabi jo'sh urar hayot. Ushbu gap yuzasidan berilgan to'g'ri ma'lumotlarni aniqlang. 1) aniqlovchili so'z birikmasining hokim qismi ega vazifasini bajargan; 2) otli birikmalarning hokim qismlari aniqlovchi va hol vazifasini bajarishi kuzatiladi; 3) fe'lli so'z birikmalarining tobe qismlari yasama so'z bilan ifodalangan; 4) holli so'z birikmalarining tobe qismlari gapdagi boshqa so'zga nisbatan hokim qism vazifasini bajargan.*

- 1, 2
 2, 3
 3, 4
 2, 4

Барча фанлардан аттестация саволлари, ўқитувчилар ва ўқувчилар учун тестлар, мактаб дарсликлари ва қизиқарли мақолалар

«Таълим/Образование» саҳифалари:

